

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.R.Shermatov, B.D.Abdikaxorov</b>	
Zararkunanda tangachaqanotilar populyatsiya zichligini monitoring qilish uslublari .....	333
<b>M.R.Shermatov</b>	
Farg'ona vodiysi agroekotizimlari metall tusli tunlamlari (Lepidoptera, Noctuidae, Plusiinae) .....	338
<b>B.M.Sheraliyev</b>	
Dukentsoy daryosi ixtiofaunasining hozirgi tur tarkibi .....	343
<b>B.Sh.Sheraliyev, O.S.Azamov, M.M.Raxmonov, Sh.A.Xalimov</b>	
Isfayramsov daryosi quyi oqimi ixtiofaunasining hozirgi tur tarkibi .....	347
<b>E.X.Najmuddinov, X.Z.To'ychiyeva</b>	
Farg'ona vodiysi suv omborlarida uchraydigan baliqlar gelmintofaunasi .....	353
<b>E.X.Najmuddinov</b>	
Farg'ona vodiysi baliqchilik xo'jaliklarida yetishtiriladigan baliqlar gelmentofaunasi.....	357
<b>E.X.Najmuddinov</b>	
Oq do'ngpeshona balig'i gelmintoz kasalliklariga qarshi antigelmintik preparallarni qo'llash usullari .....	360
<b>M.M.Yunusov, M.M.Abdughalimova</b>	
Shiralarning qishki tinim holati.....	363
<b>M.M.Yunusov, M.M.Abdughalimova</b>	
Shiralar biologiyasidagi o'ziga xos xususiyatlari .....	366
<b>M.M.Raxmonov, O.S.Azamov, B.M.Sheraliyev</b>	
Shohimardonsov-Marg'ilonsoy daryosi ixtiofaunasining (Teleostei: Actinopterygii) yangilangan turlar ro'yxati va muhofaza maqomi.....	371
<b>M.A.Axmadjonova</b>	
Lixus bardanae J.C.Fabricius, 1787 (Coleoptera: Curculionoidae) turining Farg'ona vodiysida tarqalishi haqida .....	377
<b>Sh.A.Xalimov, A.M.Inomov, B.M.Sheraliyev</b>	
Farg'ona viloyati zovurlarida uchrovchi <i>Triplophysa strauchii</i> (Kessler, 1874) ning uzunlik va og'irlik munosabatlari .....	381
<b>Sh.A.Xalimov</b>	
Farg'ona vodiysi suv havzalarida uchrovchi <i>Triplophysa strauchii</i> (Kessler, 1874) ning tarqalishi va geoaxborot ma'lumotlari .....	387
<b>Sh.B.Yo'Idashev</b>	
O'zbekiston gerpetofaunasining tur tarkibi .....	393
<b>Ahmadjonova Sadoqatxon, S.A.Adxamova</b>	
Markaziy Farg'ona hududida tarqalgan o'rgimchak turlarining sistematik tahlili va ro'yxati .....	399
<b>S.Sh.Axmadjonova</b>	
Ayrim ov to'ri hosil qilmaydigan o'rgimchak oilalarining biologik hususiyatlari.....	403
<b>S.Sh.Axmadjonova</b>	
Spilberger – xanin testi orqali talabalarning nerv zo'riqishlarini aniqlash .....	407
<b>B.X.Baxromova</b>	
Farg'ona vodiysi o'rgimchaklarining molekulyar identifikasiysi natijalari .....	411
<b>B.X.Baxromova</b>	
O'rgimchak turlarini aniqlashda tutqich to'rlarini ahamiyati .....	417
<b>B.X.Baxromova, N.G.Odilova</b>	
Farg'ona vodiysida uchrovchi o'rgimchak oilalaridan Thomisidae oиласига kiruvchi muhim turlarning biologiyasi .....	422
<b>E.A.Botirov</b>	
Catocala elocata (Esper, 1788) kapalagining (Lepidoptera: Eribidae) morfoloyisi va bioekologik xususiyatlari .....	427
<b>E.A.Botirov</b>	
Arctia caja (Linnaeus, 1758) kapalagining (Lepidoptera: Eribidae) morfoloyisi va bioekologik xususiyatlari .....	430
<b>S.M.Isag'aliyeva</b>	
Tabiiy fanlarda funksional topshiriqlar .....	434



UO'K: 595.75:591.543

**SHIRALARNING QISHKI TINIM HOLATI****СПЯЧКА ТЛИ****HIBERNATION OF APHIDS****Yunusov Mirzakarim Mirzaxalilovich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti dotsenti**Abduhalimova Maftuna Mahammadjon qizi<sup>2</sup>** <sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti magistranti**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada shiralar populyatsiyasidagi etologik munosabatlar va fe'l-atvor reaksiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, etologik strukturasi, shuningdek, shiralar koloniyasining shakllanish xilma-xilligi izohlab berildi;*

*Shunindek shiralardagi fe'l-atvor reaksiyalarining asosiy ko'rinishlari, ya ni shiralarning oziqlanishi va yashash joyini tanlashi, to'dalarning xilma-xilligi, shakllanishi va qayta shakllanishi, shiralarning himoyalanishi, shiralarning boshqa hashoratlar bilan munosabatlari, shiralarning tuxum qo'yishi va ko'payishi, shiralarning o'zgaruvchan ekologik sharoitlarga moslanish xususiyatlari talqin etildi;*

**Аннотация**

*В данной статье объяснены особенности этологических отношений и поведенческих реакций в популяции тлей, этологическая структура, а также разнообразие формирования колонии тлей;*

*Основные проявления поведенческих реакций у тли, а именно: питание тли и выбор места обитания, разнообразие роя, формирование и переформирование, защита тли, взаимоотношения тли с другими насекомыми, яйцекладка и размножение тли, приспособляемость тли к изменяющимся условиям среды обитания, были объяснены;*

**Abstract**

*In this article, the specific features of ethological relations and behavioral reactions in the aphid population, ethological structure, as well as the variety of formation of the aphid colony were explained;*

*The main manifestations of behavioral reactions in aphids, that is, aphid feeding and habitat selection, swarm diversity, formation and re-formation, aphid protection, aphid relationships with other insects, aphid egg-laying and reproduction, adaptability of aphids to changing environmental conditions were explained;*

**Kalit so'zlar:** yillik, mavsumiy, instinkтив, xulq-atvor, adaptatsiya, ekologik, hasharotlar, shiralar, koloniya, dendrofil, Cinara tujafilina (del Guerc.) Eulachnus alticola (Born.) Eulachnus Tauricus Bozh. Pterochloroides persicae Pterochloroides persicae (Chol.)

**Ключевые слова:** однолетняя, сезонная, инстинктивная, поведенческая, адаптационная, экологическая, насекомые, тля, колонийная, дендрофильная, Cinara tujafilina (del Guerc.) Eulachnus alticola (Born.) Eulachnus Tauricus Bozh. Pterochromides persicae Pterochromides persicae (Chol.)

**Key words:** annual, seasonal, instinctive, behavioral, adaptation, ecological, insects, aphids, colony, dendrophilic, Cinara tujafilina (del Guerc.) Eulachnus alticola (Born.) Eulachnus Tauricus Bozh. Pterochloroides persicae Pterochloroides persicae (Chol.)

**KIRISH**

Afidologik manbalarda shiralarning biologiyasiga oid ma'lumotlar o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, biroq ularning etologik xususiyatlari va turli o'simliklardagi oziqlanish muddatlari hamda ekologik xususiyatlariga doir ma'lumma'lumotlar bir muncha chegaralangan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, shiralar Markaziy Osiyoda, asosan, tog'li mintaqalarda uchraydi. Lekin shimoliy mintaqalarda bu tur madaniy atirgullar bilan bog'langan holda keng tarqagan (Nevskiy, 1929; Narziqulov, 1962; Axmedov, 1995; Yunusov, 1996; Zokirov, 2009). O'zbekistonda bu tur shiralari faqatgina nahmataklarda yashaydi. Shira asoschilari aprelning so'nggi dekadasida tuxumdan chiqa boshlaydi (23-30.04, Yordon). Bahor erta boshlangan yillarda

bu muddat aprelning ikkinchi dekadasida ham kuzatilishi mumkin (10-15.04). Koloniyalarning kattalashishi mavsum davomida juda sekin boradi.

Shiralarning miqdor zichligi 3-4 avlodlardan so'ng sezilarli ortsa, iyunning ikkinchi yarmi (5-7-avlodlar), iyul oyining boshlarida keskin ko'tariladi (17.06, 9.07.2003, Shohimardon, Yordon). Sharoitning qulay kelishiga qarab, bir novdada 10 tadan 30 taga qadar individlar, shuningdek, qanotli formalarni ham uchratish mumkin (15.06-5.07).

Bu tur ayrim yillari ko'plab ko'paygan davrida ozuqa o'simligining barcha qismlari bo'ylab siyrik koloniyalarni hosil qilib oziqlanishi mumkin. Masalan, M.Ahmedovning mahlumma'lumotlariga ko'ra, 1998 yilning iyun oyi oxiri va iyulning dastlabki kunlarida Duhobasoy (Yordon qishlog'i) qirg'og'i bo'ylab o'sayotgan nahmatakning butun tana va shoxlarini *Maculolachnus submacula* koloniyalari egallaganligi kuzatilgan.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Avgust oyi davomida bu shiralar miqdor zichligi keskin (1 novdada 1-3 ta shira) kamayib ketadi (14.08.2002, Yordon). Shuni tahkidlash kerakki, shiralar ob-havoning noqulay sharoitlari yuzaga kelganda, chumolilar yordamida namataknинг ildiz hamda ildiz bo'g'izlariga yashirinadi (8-9-avlodlar). Sentyabr oxirlariga kelib, koloniylar nisbatan zichlasha boradi (2-7.09) hamda erkak va urg'ochi individlar (10-avlod) paydo bo'ladi (14-18.09.2002, Yordon). Shiralar qishlovchi tuxumlarni oktyabrning dastlabki kunlaridan boshlab uchinchi dekadasiga qadar qo'yadi (3-21.10.2002). Oktyabrning so'nggi kunlaridagi haroratning sovib ketishi bu shiralarning deyarli ko'plab qirilib ketishiga olib keladi (28-29.10). Juda oz sondagi ildiz va tomir bo'g'zidagi individlar (11-avlod) noyabr oxiriga qadar ham hayotchanligini saqlab qolishi mumkin (26-27.11.2002, Shohimardon, Yordon).

*Cinara tujafilina* (del Guerc.) shirasini qanotsiz va qanotli tirik tug'uvchilari qishlab chiqadi, ular o'simlikning ildiz bo'g'iziga yaqin joyda va o'simlik tanasining chuqur yoriqlarida qator joylashib olib qishlaydi.

Noyabr-dekabr oylari davomida shiralar tana yoriqlari va o'simlik ildiz bo'g'iziga yig'iladi, ba'zilari o'simlik ildiz bo'g'izi atrofidagi tuproq ostiga qishlash uchun yig'iladi. Shiralar shu holatda qishlab chiqadi. Bu shiralarni tuyalarda tiriklayin qishlab chiqishini boshqa mualliflar ham kuzatgan. Mazkur shiralarning yanvarp-fevral oylarida ham uchrashligi qayd etilgan. Lekin tog'li hududlarda uning tuxumlari qishlab chiqishligi haqida ma'lumma'lumotlar berilgan.

Qrim qarag'ayida yashovchi *Eulachnus alticola* (Born.) shirasi oktyabrning o'rtalarida erkak va urg'ochi shiralar qayd etilib, ular o'zлari nobud bo'lib ketishi bayon etilgan.

Kuzatishlar natijasida mazkur turning to'q yashil ranga kirgan vakili dekabrda (Farg'ona shahri) qrim qarag'ayining ninabarglari hamda ninabarg bo'g'zida uchrashildi. Kuzatuvalar davomida (2004 yil 5 fevralp, Farg'ona shahri, -2<sup>0</sup>S) qrim qarag'ayining tanasida - po'stloq oralig'ida shiralar topildi. O'simlikni qor qoplashiga qaramay, rangi yashildan ancha uzoqlashgan, yashil-qo'ng'ir rangdagi individlar borligi qayd etildi.

Yuqoridagilar asosida *Eulachnus alticola* (Born.) shirasi qrim qarag'ayida tiriklayin holatda ham qishlab chiqishi mumkin, degan xulosaga olib keladi.

*Tuberolachnus salignus* (Gmel.) ning qishki mavsumdagи hayotiy sikli o'ziga xos kechadi. Mazkur lyaxnina vakillari sovuq haroratga birmuncha chidamlı bo'lib, dekabr oyida ham koloniylar uchrashish mumkin. Dekabr oxiriga kelib, shiralar o'simlikning pastki qismlariga silijiysi. Haroratning tobora pasayib borishi mazkur shiralarning karaxt holiga o'tishiga sabab bo'ladi. Majnun tollarda shakllangan koloniylar nisbatan yashovchan bo'lib, dekabning oxirgi kunlarigacha tirikligini saqlashi kuzatildi. Yanvarga o'tib, tirik qolgan shiralar po'stloq oralari va daraxt yoriqlariga yig'iladi. Daraxt yoriqlaridagi shiralar fevralga qadar hayotchanligini saqlaydi.

Shaftoli tana shirasining (*Pterochloroides persicae* (Chol.) biologiyasini o'rganish XIX asrning oxirlarida boshlangan bo'lsa-da, hozirga qadar bu boradagi fikrlarda bir to'xtamga kelingan emas. Jumladan, P.P.Arhangelskiy (1917) fikricha, bu shiralar, dastavval, tirik tug'ish yo'li bilan ko'payib, so'ngra tuxum qo'yishga kirishadi. V.P.Nevskiy (1929) esa shiralarning qishlovchi tuxumlari kuzda rivojlangan qanotsiz urg'ochilar tomonidan qo'yilishligini ta'kidlaydi. M.A. (1941) shaftoli tana shirasining erkak va urg'ochi formalari uchrashligini qayd etadi. V.V. Yaxontovning (1953) kuzatishicha, mazkur shira qishki noqulay mavsumni tuxumlik holatida o'tkazadi. M.N.Narziqulovning kuzatishicha, (1954) bu shiralarnig tuxum qo'yuvchi formalari noyabr o'rtalarida paydo bo'ladi va dastlabki tuxumlar shu oyning ikkinchi yarmida qo'yiladi. M.Yunusov (1996) ning kuzatishlaricha, shaftoli tana shirasi tuxum qo'ymaydi, tirik tug'uvchi urg'ochilari qishlab chiqadi.

**BIOLOGIYA**

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, bu tur ustidagi ayrim muammolarga barham berildi.

Shaftoli tana shirasining tuxum qo'yishi va tuxumdan chiqish muddatlari mavsumdagi ob-havo sharoitlariga bog'liq holatda o'zgarib turadi. Jumladan, 1997-1998 yilda qishlovchi tuxumlar 25-30 oktyabrdan kuzatilgan bo'lsa, 1999-2000 yilda noyabrning birinchi yarmida, 2001 yilda esa 10 oktyabrdan, 2004 va 2005 yillarda 25-30 oktyabrdan qayd etildi. Ozuqa o'simlik tanasining 30 sm<sup>2</sup> yuzasida 3000-3500 tagacha tuxumlar borligi ma'lum bo'lgan (Yunusov, 2009).

Qishlab chiqan tuxumlarning rivojlanishi aprelning birinchi yarmida, ayrim bahor erta kelgan yillari mart oyida kuzatiladi. Masalan, 1998 yilda 10-12 aprelda qayd etilgan bo'lsa, 2000 yilda aprelning 1-3-kunlari, 2004 yilda 21-25 mart, 2005 yilda 10-12 mart kunlari kuzatildi (Toshloq, Quva) (Ahmedov, Zokirov, Yunusov 2004; 2005).

**XULOSA**

Shiralardagi fe'l-atvor reaksiyalarining asosiy ko'rinishlari, ya'ni shiralarning oziqlanishi va yashash joyini tanlashi, to'dalarning xilma-xilligi, shakllanishi va qayta shakllanishi, shiralarning himoyalanishi, shiralarning boshqa hashoratlar bilan munosabatlari, shiralarning tuxum qo'yishi va ko'payishi, shiralarning o'zgaruvchan ekologik sharoitlarga moslanish xususiyatlari talqin etildi;

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Архангелский П.П. К биологии персиковой тли *Pterochloroides persicae* Chol. –Ташкент: Туркестанск. энтомол. станции. 1917. – 367 б.
2. Ахмедов М.Х. Тли - афидиды (Homoptera, Aphidinea, Aphididae) аридно-горных зон Средней Азии (экология, фауногенез, таксономия).: Автореф. дис... докт. наук. -Т. 1995. - 45 б.
3. Юнусов М.М. Тли (Homoptera, Aphidinea) центрального Тянь-Шаня: Автореф. дис. ...канд. биол. наук. -Т., 1996. - 23 б.
4. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё қишлоқ хўжалиги ўсимлилари ҳамда маҳсулоларининг зааркундалари ва уларга қарши кураш. -Ташкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. - 696 б.
5. Zokirov I.I. Shira-chumoli o'rtaidagi simbiotik munosabatlarni o'rganishga oid // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2006 b.- №4. –B. 19-21.
6. Zokirov I.I. Hashoratlarda etologik munosabatlarning namoyon bo'lish xususiyatlari (Lyaxnina shiralari misolida) // Aspirant, doktorant va tadqiqotchilarining Respublika ilmiy-amaliy anjumanasi: mahruzalar to'plami. 2007 yil, 15-17 mart. –Toshkent, 2007. -34-36 b.
7. Zokirov I.I. Shaftoli ekosistemasi ozuqa zanjiri shakllanishida "shira" suyuqligining ahamiyati FDU. Ilmiy xabarlar. –Farg'ona, 2008. –№ 1. –B. 19-21.
8. Zokirov I. I. Mexanizmq povedeniya tley soglasno teorii funksionalnqx sistem // Vestnik Karakalpaskogo otdeleniya AN RUz. –Nukus, 2009. –№2.